XALQ DEPUTATLARI KONIMEX TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 30-aprel VII-23-50-5-70-K/26 Konimex tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qaror ijrosini ta’minlash yuzasidan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori ijrosini ta’minlash yuzasidan, hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish sur’atlarini jadallashtirish, tuman hokimligining dolzarb muammolarga tez yechim topish borasidagi vakolatlari va moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida, xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlarinining takliflarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-387-sonli qarorining 2.(v)-bandiga asosan Konimex tumani hududida alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalari 20 foizga oshirilsin va yig‘imlarning cheklangan stavkalari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Konimex tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Ro‘zimuratov) mazkur yig‘imlar boyicha 2026-yil mahalliy byudjet tushumlarini qayta hisob-kitob qilish va tegishli o‘zgartirishlarni kiritish ishlarini amalga oshirsin.

4. Tuman hokimligining axborot xizmati (A.Ne’matov), “Кенимех таны” gazetasi tahririyati bilan hamkorlikda, amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy muddatdan keyin kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning ijrosini ta’minlash, tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Hazratqulov), qarorning bajarilishini nazorat qilish, xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Ye.Tashbenbetov) zimmalariga yuklansin.

Kengash raisi **XUDAYBERDIYEV AZAMAT XAYDARKULOVICH**

Xalq deputatlari Konimex tumani
Kengashining
2026-yil 30-apreldagi
VII-23-50-5-70-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yigʻimlarning cheklangan stavkalari

T/r	Yigʻim turi	Bir oyga chegaralangan stavkalar (soʻmda)	
		Amaldagi stavka	Kengash qaroriga asosan oshirilgan stavka
1	Alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yigʻim	300 000	360 000
2	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yigʻim	150 000	180 000